PEDAGOGIK TADQIQOTLAR JURNALI
ISSN: 3060-4923 Impact Factor –7,212

NAVOIY LIRIKASIDA AYOL TIMSOLI ORQALI IRFONIY MA'NOLARITNING BERILISHI

Sayidolimov Javoxirbek Baxtiyorjon o'g'li
Farg'ona davlat universiteti filologiya fakulteti
adabiyotshunoslik kafedrasi katta o'qituvchisi (PhD),
javoxirsayidolimov@gmail.com
Xursandova O'g'iloy Mo'ydinjon qizi
Farg'ona davlat universiteti filologiya fakulteti talabasi
Doi: https://doi.org/10.5281/zenodo.20056450

Annotatsiya: Mazkur maqolada tasavvuf adabiyot tadriji, orifona g'azallardagi majoziy ma'nolar va haqiqat timsollar orqali ifodalanishi sabablari qisqacha ko'rsatib o'tilgan. Shuningdek, Alisher Navoiy g'azallarida tasvirlangan ayol uzvlarining tasavvufiy ma'nolari shoir baytlari asosida tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: tasavvuf, irfon, la'l, oraz, dard ahli, majoz, haqiqat, ishqi ilohiy.

Kirish

Adabiyotda tasavvuf she'riyati deb nomlangan alohida yo'nalishning paydo bo'lishi VIII asrda yurtimiz sarhadlariga kirib kelgan va insonlar ongiga, hayot tarziga benihoya katta ta'sirini o'tkazgan Islom dini bilan chambarchas bog'liqdir. Bu ta'limot tadrijiy ravishda o'zida bir qancha bosqichlarni namoyon qildi va she'riyat bilan mujassamlasha bordi. Xususan, turkiy xalqlar adabiyotida bu yo'nalishning eng cho'qqisi XV asrning ikkinchi yarmiga – buyuk bobokalonimiz Alisher Navoiy davriga to'g'ri keladi. Tabiiyki, Alisher Navoiydan avval ham o'z g'azallariga irfoniy ma'nolarni mahorat bilan singdirgan turkiy ijodkorlar – Lutfiy, Atoyi kabi shoirlar bo'lgan, biroq arab mumtoz adabiyotining yirik vakili, tasavvuf shayxi Ibn ul-Foriz, Abdulqodir Jiyloniy, fors adabiyotining yetuk namoyandalari hisoblangan Xusrav Dehlaviy, Nizomiy Ganjaviy, Abdurahmon Jomiy kabi bu maydonning eng oldi "chavandoz"lari bilan tenglasha oladigan yagona ijodkor Alisher Navoiy edi. Islom shariatini vaznga solgan shoir o'zining "Nasoyim ul-muhabbat" asarida yetti yuz ellik baytdan ortiq bo'lgan, tasavvufiy ma'nolarning adabiy qomusi sifatida shuhrat qozongan "Toiya" qasidasi muallifi shayx Ibn ul-Foriz haqida ma'lumotlar beradi. Bu shuni ko'rsatadiki, Alisher Navoiy tasavvufning ildizi bo'lgan arab mumtoz adabiyoti bilan yaqindan tanish bo'lgan va ularning ko'ngillaridagi zavq-u shavqni qanday ramzlardan foydalanib ifodalab berishlarini ham yaxshi anglagan. Islomiy she'riyatda majozga haqiqat ko'prigi deb qaraladi, asarlarda ma'nolarni to'g'ridan-to'g'ri bermay, ularni turli ramzlar bilan ifodalash tobeinlar davridan beri qo'llanib kelinayotgan usul sanaladi, xususan, mashhur mutasavvufa ayol Robiya Adaviyaning quyidagicha jumlalari bunga yaqqol dalildir: "Mahbub, may, kosa va Robiya" (ya'ni men ularning to'rtinchisiman). Misradan "kosa" va "may" istilohlari o'z ma'nosida emas, balki majoziy ma'noda istifoda etilayotgani anglashiladi. Bu an'anani Navoiy ham asarlarida o'ziga xos usulda davom ettirib, azaldan mavjud bo'lgan ramzlardan foydalangan holda g'azallariga yangicha ma'nolar tizmasini kiritadi. "Xazoyin ul-maoniy"ning qolgan barcha g'azallarning botiniy ma'nolarini anglash uchun mayoq hisoblangan ilk g'azalidan isbot uchun bir bayt keltiramiz:

"Sen gumon qilg'andin o'zga jom-u may mavjud erur,
Bilmayin naf etma bu mayxona ahlin, zohido"

(Ey zohid, ya'ni zohirparast musulmon sen o'ylagandan boshqa jom va may mavjud, sen bilmasdan ishq ahlini – Allohning do'stlarini rad qilib qo'ymagin).

Irfoniy asarlarda mutasavvuf ijodkorlar nega ma'nolarni o'z holicha bermay, ularni ramzlar orqali yuksak saviyada bayon qilganlarining bir qancha sabablari bor bo'lib ularning birinchisi shuki,

oshiqning ko‘nglida kechayotgan tuyg‘ular, zikrdan so‘ng hosil bo‘ladigan Allohning mushohadalari yuqori darajadagi tuyum bo‘lgani sabab uning ifodasi ham yuqori usulda zohirda namoyon bo‘ladi. Ikkinchidan, orifona usulda qalam tebratgan shoirlar o‘zlarining zavqini shu istilohlar bilan qondirganlar. Uchinchi sababi esa ular o‘zlarining botiniy holatlarini nomahramlardan – bu hislardan yiroq zohirparastlardan yashirishgan, bitilgan asarlarni har kim ham emas, balki Islom shariatidan xabardor bo‘lgan, ramzlar tilini anglay oladigan darajadagi kishilar o‘qib zavq olishlarini istashgan. To‘rtinchi eng asosiy sababi esa tasavvuf ahli o‘zlariga xokisorlikni kasb qilganidan Allohga bo‘lgan muhabbatlarini butxona, mayxona, dayr, zunnor kabi dunyoviy istilohlar orqali ifodalamoqchi bo‘ladilar ham bu bilan o‘zlarini riyodan uzoq tutadilar. Alisher Navoiy g‘azallarida turli ko‘rinishlarda tasvirlanadigan ayol go‘zalligi, nafosati, noz-u karashmalari ham majoziy ma’nodagina bo‘lib, aslida ular orqali ijodkor qalbning eng intim, eng nozik kechinmalarini, orifona qarashlarini go‘zallik ramzi bo‘lgan ayol va uning uzvlari – qosh, ko‘z, lab, yuz orqali ifodalamoqchi bo‘ladi. Navoiyning asl muddaosi faqatgina ishqi ilohiy bo‘lganini ushbu baytlar bilan isbot qilish mumkin:

Oshiqki, murodi kom bo‘lg‘ay,
Oshiqlik anga harom bo‘lg‘ay.
Yoki
Majozdin manga maqsud erur haqiqiy ishq,
Nedinki, ahli haiqatqa bu tariqat erur.
Majozdin chu haiqatqa yo‘l topar oshiq,
Qilur majozni nafyi ulki, behaqiqat erur.

Navoiyshunos olim Yoqubjon Is’hoqov bu borada shunday yozadi: “Navoiy ijodida majoziy ishq haqiqiy ishqdan alohida olinib, unga qarama-qarshi qo‘yilmaydi. Balki majoziy ishq ishqi haqiqiyning bir ko‘rinishi yoki haqiqiy ishq yo‘lidagi o‘ziga xos bir bosqich sifatida baholanadi”.

Muhokama Va Natijalar

Alisher Navoiyning “Tun oqshom…” deb boshlanuvchi g‘azalidan bir necha baytlar tahlil qilsak, tom ma’noda uning irfoniy ma’noda bitilgan misralar ekani anglanadi:

Tun oqshom keldi kulbam sori ul gulrux shitob aylab,
Xiromi sur’atidin gul uza xo‘ydin gulob aylab.

Ushbu misralarda zohiran bir gul yuzli qizning oshiq uyiga shitob bilan kelgani tasvirlangan va qiz yuzidagi reza ter atirgul yaproqlaridan olinadigan maxsus suyuqlik – gulobga muqoyasa qilingan. Irfoniy ma’noda esa gulrux bu – Alloh zikridan hosil bo‘ladigan mushohadadir. G‘azallarda yorning go‘zalliklari turlicha tasvirlanishi mushohadaning kishi qalbida turlicha namoyon bo‘lishi bilan aloqador. Baytda aynan tun payti Allohni zikr qilish va uning ma’rifatini hosil qilishga intilishning sababi sifatida Buxoriy va Muslim kabi mashhur kitoblarda rivoyat qilingan ushbu hadisni keltirish mumkin: “Albatta, Alloh taolo har kuni kechaning uchdan biri qolganda dunyo osmoniga tushadi va tong otguncha “tavba qiluvchi bormi – tavbasini qabul qilaman; istig‘for aytuvchi bormi – mag‘firat qilib, gunohini kechiraman; so‘rovchi bormi – so‘raganini beraman” deydi” Buning ustiga tunda qilingan ibodat bandada Allohga nisbatan qurbatni hosil qiladi va gunohlarni ketkazadi, fazl-u karamga sabab bo‘ladi. Ko‘rinadiki baytda oshiq qalbiga tashrif buyurgan gulrux, aslida, Allohning zikri natijasida paydo bo‘lgan ruhiy holat, botiniy kechinmadir. Alisher Navoiyning quyidagi baytida ham ayol uzvlari orqali tasavvufiy ma’nolar ifodalanadi:

Oraz-u la’li xayoli birla sen to xastasen,
Naf etar’ go‘yoki bu za’fingg‘a gulqand, ey ko‘ngul.

Osiyo muzeyida ko‘rgazma shaklida saqlanayotgan tasavvuf she’riyati atamalari lug‘atida (A – Nov.29(B 1810),246 – 251a majmuasidagi muallifi noma’lum lug‘at) bir qancha timsollar ma’nosi izohlanadi, jumladab unda “yuz” – “oraz” so‘ziga quyidagi ta’rif berilgan: “Yuz deb xolis (hech narsaga aralashmagan) sof tajalliyotga (jilvalanishga) aytiladi. Shuningdek, yuz va ruxsor deb husni zotiy va tajalliyoti jamoliyning zuhur bo‘lish joyiga aytiladi”. Demak, “yuz” so‘zi chin haqiqatga, ya’ni tarkibiy bo‘lmagan, yaxlit, Mutlaq ruhga nisbatan istifoda etiladi. Misrada la’l so‘zi labni

ifodalab kelmoqda va uning tasavvufdagi ma’nosi quyidagicha: “Lab – mavjudotga vujudiy fayz yetkazuvchi rahmoniy nafas; labdan maqsad kalom (so‘z)dir, mo‘jizadir va rahmoniy nafasga ham ishoradurkim, ashyolar vujudiga jon va fayz bag’ishlaydi. Lab – oshiqlarni fayz va xursandchilik bilan siylash; ilohiy olamdan payg‘ambarlarga farishta orqali, valiylarga ilhom orqali nozil bo‘lgan kalom”. Demak, oshiq Yorning tajallisi va rahmoniy nafas xayolida xasta va bu kasallikning davosi o‘likka jon bag‘ishlovchi yor lablari. Oshiqning xasta ko‘nglini davolashga qodir Yor kimligi keyingi baytdan anglashiladi:

La’li ne komdindurur, nevchun hadis etmas dema,
Ne ato border Masihog‘a, ne farzand, ey ko‘ngul.

Tasavvufda oshiqlarni “dard ahli” deb ham atashadi, ya’ni ular shunday kasallikka duchor bo‘lganlarki, buning davosi faqatgina Allohning jamoli, shifoni faqatgina oxiratdan toppish mumkin, bu dunyoda esa ular shu dard bilan yashaydilar. Alisher Navoiyning “Layli va Majnun” dostonida ham zaif va kasal oshiqqa yagona davo Alloh zikri ekanligi zikr etiladi:

Oshiqqa garchi za’f-u marazlikdurur mijoz,
Ma’shuq zikri ul marazig‘a erur iloj.
(Mijozi zaif va kasal oshiqqa yagona davo – ma’shuqni yodlashdir.)

Qiyoslaydigan bo‘lsak, Ozarbayjon shoiri Muhammad Fuzuliy ijodida ham shunday misralar mavjudligini ko‘ramiz:

Ishq dardi-la xusham, el chek ilojimdan tabib
Qilma darmon kim, halokim zahri darmonimdadir.

(Men ishq dardi bilan xushman, meni davolashdan voz kech ey Tabib, bu Darmon men uchun zahardir!) Alisher Navoiy o‘zining “Jilvamu aylar qizil to‘n birla har yon ul pari” deb boshlanuvchi g‘azali xotimasida ham lab timsoli va yorning la’lgun ko‘ylagi tasviri orqali irfoniy ma’no ifodalanganini ko‘rish mumkin:

Ul pari la’lida joning, ey Navoiy, bo‘ldi mahv,
La’lgun kisvatda mahv etgandek o‘zni ul pari.

Pari o‘zini la’l rangli (qizil) libos ichiga yashrgani kabi oshiqning joni ham jonon la’li (qizil labi) ichiga yashirinib g‘oyib bo‘lgan. Boshqacha aytganda, oshiq va ma’shuq birlashib ketgan. La’l – lab deganda tasavvufda ma’shuqa so‘zining botini, nozik ma’nosi, shuningdek, ilohiy nafas, yo‘qlikdan borliqni vujudga keltirgan Alloh kalomi anglashiladi. Ya’ni bu Kalom barchani qamrab oladi, vali zotlar mujdasi bilan oshiq vujudiga singib, uning jonini egallab oladi. Baytda la’l, la’lgun kisvat, pari timsollari orifona ma’noni ifodalsh uchun vosita vazifasini bajarib kelgan.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, Alisher Navoiy ijodini tushunmoq uchun avvalo ijodkor g‘azallari bitilishiga sabab bo‘lgan ilmlarni – Islom shariati ilmini, tasavvuf ilmini daqiq joylarigcha o‘rganmoq lozim. Bu ilmlar narvon vazifasini bajarib, Navoiy g‘azallarining botiniy, asl ma’nolarini anglab, zavq olishimizga, ayni vaqtda amal qilishimizga turtki bo‘ladi. Biz bemalol Alisher Navoiyni buyuk mutasavvuf, yetuk din olimi va betakror shoir deb ayta olamiz. Uning g‘azallaridagi zohiran qaraganda dunyoviy muhabbat kuylangandek ko‘rinadigan baytlarining ham botiniga nazar tashlansa, Navoiyning asl muddaosini anglash oson kechadi va bu uning Islom shariatini vaznga solgan din shori ekanini isbotlay oluvchi dalil sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Turkiy adabiyot durdonalari. Alisher Navoiy, “O‘zbekiston” Toshkent – 2022.
2. Mumtoz adabiyot istilohlari qisqacha izohli lug‘ati, Muborak Ataniyazova. Qoraqalpoq davlat universiteti, “Ilmpaz” nashriyoti, 2021.
3. Tasavvufiy adabiyot tarixining Alisher Navoiy asarlarida yoritilishi, Eshniyazova Maysara, Excellencia international journal of education.

4. Majoz va haqiqat munosabatida ayol obrazining irfoniy vazifasi, Majidova Mahbuba, Scientific journal impact factor.
5. Alisher Navoiy hazratlarining hayotiga bir nazar… Hasanxon Yahyo Abdulmajid. “Kitobxonlik maktabi” loyihasi
6. Alisher Navoiy hayoti, Navoiyxonlikdan lavha, Anvar Tursunov.
7. Alisher NAvoiy, Qaro ko‘zim. Toshkent, G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1988.
8. Najmiddin Komilov, Timsollar timsoli. Alisher Navoiy g‘azallariga sharh. Xurshid Davron kutubxonasi.
9. Abdulhamid Ismoil. Qoshi yosinmu deyin…1995.